

Abduvali ISADJANOV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrası professori, i.f.d.
Sarvinoz DJUMABAYEVA,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti

O‘ZBEKISTONDA AGROTURIZM: BARQAROR TURIZM TURI SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi, O‘zbekistonda agroturizmning barqaror turizm turi sifatida rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Asosiy qism davomida agroturizm tushunchasi, ushbu turizmning rivojlanish tendensiyalari, muammolari va istiqbollari ko‘rib chiqilib, uni barqaror rivojlantirish yo‘llari batafsil yoritilgan. Agroturizm qishloq xo‘jaligi va turizmni integratsiya qiluvchi soha bo‘lib, qishloq hududlarining iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash, fermerlar daromadini diversifikatsiya qilish hamda milliy madaniyatni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tezis O‘zbekistonda ekoturizmni yanada rivojlantirishga doir takliflar va xulosalarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Kalit so‘zlar: agroturizm, barqaror turizm, ekologik turizm, iqtisodiy rivojlanish, qishloq infratuzilmasi.

Аннотация. В данной работе анализируются возможности развития агротуризма в Узбекистане как устойчивого вида туризма. В основной части рассматриваются понятие агротуризма, тенденции его развития, существующие проблемы и перспективы, а также подробно освещаются пути его устойчивого развития. Агротуризм представляет собой сферу, интегрирующую сельское хозяйство и туризм, и играет важную роль в обеспечении экономического развития сельских территорий, диверсификации доходов фермеров, а также в сохранении национальной культуры. Кроме того, в работе представлены предложения и выводы, направленные на дальнейшее развитие экотуризма в Узбекистане.

Ключевые слова: агротуризм, устойчивый туризм, экологический туризм, экономическое развитие, сельская инфраструктура.

Abstract. This thesis analyzes the potential for the development of agritourism as a form of sustainable tourism in Uzbekistan. The main body examines the concept of agritourism, its development trends, existing challenges, and future prospects, while providing a detailed discussion of pathways for its sustainable advancement. Agritourism represents an integrated sector that combines agriculture and tourism, playing a significant role in fostering the economic development of rural areas, diversifying farmers' income sources, and preserving national cultural heritage. Furthermore, the thesis includes proposals and conclusions aimed at further promoting ecotourism development in Uzbekistan.

Keywords: agritourism, sustainable tourism, ecotourism, economic development, rural infrastructure.

Bugungi kunda turizm sohasi jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo‘lib, uning barqaror shakllarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, agroturizm qishloq hududlarini rivojlantirish, aholi bandligini oshirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agroturizm rivojlangan mamlakatlarda kengroq

o'rganilgan bo'lib, rivojlanayotgan davlatlarda, jumladan O'zbekistonda bu yo'nalish hali to'liq shakllanmagan. Shu bilan birga, agroturizm iqtisodiy jihatdan istiqbolli bo'lishiga qaramay, uning barqarorligini ta'minlash uchun ekologik va ijtimoiy omillarni ham inobatga olish zarur. Mazkur tadqiqot O'zbekistonda agroturizmning barqaror turizm turi sifatida rivojlanish jarayonini tahlil qilish, uning ekologik va iqtisodiy samaradorligini aniqlash hamda ushbu sohada istiqbolli yo'nalishlarni belgilashga qaratilgan.

Ma'lumki, agroturizm qishloq joylari va qishloq xo'jaligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan turizm turi hisoblanadi.

Agroturizm barqaror turizm turi sifatida quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

- Iqtisodiy barqarorlik, fermer xo'jaliklari va mahalliy aholi uchun qo'shimcha daromad manbai yaratish;
- Ekologik muhofaza, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;
- Ijtimoiy va madaniy barqarorlik, mahalliy aholining manfaatlarini himoya qilinish, milliy an'ana va qadriyatlarni saqlash;
- Mahalliylik tamoyili, agroturizm xizmatlari asosan mahalliy resurslar, mahsulotlar va ishchi kuchiga asoslanishi kerak;
- Ta'lim va tajriba almashish, turistlarga qishloq hayoti, dehqonchilik va milliy urf-odatlar haqida bilim berish, interaktiv tajriba yaratish;
- Barqaror boshqaruv tamoyili, uzoq muddatli rivojlanish, iqtisodiy foyda bilan birga ekologik va ijtimoiy omillar muvozanatda olib borish kerak.³²⁵

Ilmiy adabiyotlarda "agroturizm" tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi.

1-jadval

Agroturizm tushunchasiga olimlar tomonidan berilgan ta'riflar

Mualliflar	Ta'riflar
Weaver va Fennell (1997)	Agroturizm – qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan o'z hududlarida turizmni targ'ib qilish amaliyoti. Barqaror turizmning birinchi turi sifatida e'tirof etiladi
Nickerson (2001)	Agroturizm – tashrif buyuruvchilarning hordiq chiqarishi yoki ta'lim olishi uchun ishchi ferma, rancho yoki qishloq xo'jaligi korxonasi tashkil etilgan tijorat korxonasi
Roberts (2001)	Agroturizm – qishloq turizmining bir qismi bo'lib, tashrif buyuruvchilarga qishloq muhitida turar joy bilan birga ferma faoliyatida ishtirok etish imkonini beradi
McGehee va Kim (2004)	Agroturizm – hordiq chiqarish, ta'lim yoki ferma jarayonlarida faol ishtirok etish maqsadida ishchi ferma yoki qishloq xo'jaligi korxonalariga tashrif buyurish harakati
Gracia-Carpio (2008)	Agroturizm – qishloq hayoti jihatlarini, jumladan fermada yashash, ekskursiyalar va amaliy tajribalarni his qilish maqsadida sayyohlarni ferma hududlariga jalb qilish amaliyoti
Olsen (2009)	Agroturizm – qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi yoki qayta ishlashni turizm bilan bog'laydigan turizm shakli bo'lib, sayyohga dehqonchilik va qishloq hayoti haqida o'rganish imkonini beradi
Forbord (2012)	Agroturizm – tashrif buyuruvchilar uchun turar joy, mahalliy mahsulotlarni iste'mol qilish, qishloq urf-odatlarini o'rganish, dam olish va madaniy tadbirlarni qamrab oluvchi soha
Tew va Barbieri	Agroturizm – fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi operatsiyalari doirasida amalga

³²⁵ Amonov S.A. Qishloq xo'jaligida turizm faoliyatini tashkil etish. – Samarqand: "Zarafshon", 2021. – B 40.

(2012)	oshiriladigan har qanday faoliyatni o'z ichiga olgan qishloq turizmining bir turi
Flanigan (2014)	Agroturizm – sayyohlarni hordiq chiqarish va dehqonchilik hayoti haqida ma'lumot olish uchun fermalarga olib kelish amaliyoti
Kempbell (2020)	Agroturizm – fermerlarga turizm faoliyatini o'z xo'jaligida qo'shimcha iqtisodiy faoliyat sifatida tashkil etish imkonini beruvchi model
Ghadiri-Masoum (2020)	Agroturizm – qishloq hududlarining rivojlanishiga xizmat qiluvchi, mahalliy madaniyat, an'analar va oziq-ovqat qadriyatlarini targ'ib qiluvchi istiqbolli turizm bozori
Van Zyl, Merwe va Van Der (2021)	Agroturizm – dam olish, ta'lim va tijorat maqsadlarida fermer xo'jaliklariga tashrif buyurishni o'z ichiga olgan turizm shakli

Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib, agroturizm qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan, turistlarga xizmat ko'rsatish orqali iqtisodiy daromad keltiruvchi hamda mahalliy madaniyat va muhitni saqlashga xizmat qiluvchi turizm turi sifatida talqin qilinadi.

2025-yil holatiga ko'ra, global agro-qishloq turizm sektori taxminan 102,5 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, 2035-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 173,4 milliard AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Sektorning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 5,4 foizni tashkil etib, bu tajriba asosidagi turizmga bo'lgan talab ortib borayotganini ko'rsatadi.³²⁶ Bunday tendensiya zamonaviy turistlarning an'anaviy dam olishdan ko'ra, qishloq hayotida bevosita ishtirok etish va amaliy tajriba orttirishga bo'lgan qiziqishi ortayotganini anglatadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirish va uni barqaror turizm turiga aylantirish uchun yetarli salohiyatga ega hisoblanadi. Bunga mamlakatning boy tabiiy resurslari, qulay iqlim sharoiti, keng qamrovli qishloq xo'jaligi hududlari hamda tarixiy-madaniy merosning xilma-xilligi asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, aholi orasida milliy urf-odatlar va mehmondo'stlik madaniyatining yuqoriligi ham turistlar uchun autentik tajriba yaratish imkonini beradi. Xususan, Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm va Samarqand viloyatlarida qishloq hayoti, an'anaviy xo'jalik yuritish usullari va tabiiy muhit uyg'unligi nisbatan yaxshi saqlanib qolgan.

Bundan tashqari, mamlakatda faoliyat yuritayotgan minglab fermer xo'jaliklari agroturizmni rivojlantirishning iqtisodiy tayanchidir. Ushbu xo'jaliklar nafaqat mahsulot yetishtirish, balki "ferma tajribasi" yo'nalishini rivojlantirish orqali turistlarga qishloq hayotida bevosita ishtirok etish imkonini ham berishi mumkin. Bu esa agroturizmni oddiy tomosha turizmidan tajribaviy turizm shakliga aylantiradi.

O'zbekistonda milliy taomlar, xalq hunarmandchiligi va madaniy an'analarning rivojlanganligi "madaniy agroturizm"ni shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Turistlar nafaqat qishloq xo'jaligi jarayonlarida ishtirok etishi, balki milliy taomlar tayyorlash, hunarmandchilik darslari va an'anaviy marosimlarda qatnashish orqali boy tajriba orttirishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar va onlayn marketing vositalarining kengayishi agroturizmni global darajaga olib chiqish imkonini bermoqda. Internet platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli reklama orqali qishloq turizmi xizmatlarini keng

³²⁶ Ndhlovu E., Dube K. Agritourism and sustainability: A global bibliometric analysis of the state of research and dominant issues // Journal of Outdoor Recreation and Tourism. 2024. Vol. 46. 100746.

auditoriyaga taqdim etish mumkin. Shuningdek, “fermadan dasturxonigacha” konsepsiyasi va ekologik turar joylar kabi innovatsion yondashuvlar turistlarning qiziqishini yanada oshiradi.³²⁷

O‘zbekistonda agroturizm salohiyati yuqori bo‘lishiga qaramasdan, uning rivojlanishiga bir qator muammolar to‘sqinlik qilmoqda. Jumladan, qishloq hududlarida turizm infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, transport va raqamli aloqa tizimlarining cheklanganligi sayyohlarni jalb qilish va ularni uzoq muddat ushlab turishda qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Shuningdek, agroturizm faoliyati ko‘pincha qishloq xo‘jaligi mavsumiyligiga bog‘liq bo‘lgani sababli, xizmatlardan foydalanish va daromad olishda mavsumiy tebranishlar kuzatiladi. Bundan tashqari, yer resurslaridan foydalanish, ekologik me‘yorlar va turizm faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarning murakkabligi ham ushbu sohaning kengayishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun qishloq infratuzilmasini modernizatsiya qilish, agroturizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish hamda yil davomida turistlar oqimini ta‘minlovchi marketing strategiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash dasturlari, investitsion imtiyozlar va mahalliy hamjamiyat ishtirokini kuchaytirish orqali O‘zbekistonda agroturizmni barqaror rivojlantirishga erishish mumkin.

Ushbu tadqiqot davomida O‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirish imkoniyatlari va uning barqaror turizm turi sifatidagi ahamiyati o‘rganildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatning qulay tabiiy-iqlim sharoiti, boy qishloq xo‘jaligi resurslari hamda tarixiy-madaniy merosi agroturizmni rivojlantirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari agroturizmni barqaror rivojlantirish uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, xizmatlar sifatini oshirish hamda mahalliy aholining faol ishtirokini ta‘minlash zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki qishloq hududlarida bandlikni kengaytirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashga ham xizmat qiladi.

Ushbu tezisda keltirilgan ma‘lumotlar hamda O‘zbekistonning turizm sohasidagi mavjud salohiyatini inobatga olgan holda quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

– qishloq hududlarida infratuzilmani rivojlantirish – qishloq yo‘llarini ta‘mirlash va kengaytirish, transport qatnovini yaxshilash hamda turistik yo‘nalishlarga yo‘l belgilarini o‘rnatish zarur.

– moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va imtiyozlar – qayta tiklanuvchi energiya va suvni tejash texnologiyalarini joriy etgan korxonalariga subsidiyalar ajratish lozim.

– kadrlar tayyorlash va malaka oshirish – mutaxassislar uchun mehmondo‘stlik, boshqaruv, moliyaviy savodxonlik va raqamli ko‘nikmalar bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish zarur.

– mahalliy aholi ishtirokini ta‘minlash – jamoaga asoslangan turizm modelini rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirish va resurslardan adolatli foydalanish

³²⁷ Pehin Dato Musa S. F., Chin W. L. The role of farm-to-table activities in agritourism towards sustainable development // *Tourism Review*. 2022. Vol. 77(2). P. 659–671.

mumkin.

– monitoring va baholash tizimini kuchaytirish – agroturizm faoliyatini doimiy tahlil qilish orqali turistlar oqimini, iqtisodiy samaradorlik va ekologik ta'sir bo'yicha ko'rsatkichlarni baholash sohani takomillashtirishda muhim hisoblandi.

Umuman olganda, O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirish katta salohiyatga ega bo'lib, uni barqaror turizm tizimining muhim yo'nalishlaridan biriga aylantirish mumkin. Shu sababli, ushbu sohani kompleks yondashuv asosida rivojlantirish mamlakat turizm salohiyatini yanada oshiradi va xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Amonov S.A. Qishloq xo'jaligida turizm faoliyatini tashkil etish. – Samarqand: “Zarafshon”, 2021. – 160 bet.
2. Mirzayev, Z.Z. Barqaror turizm va mintaqaviy taraqqiyot: monografiya. – Toshkent: “Fan”, 2018. – 184 bet.
3. Aazami, M., & Shanazi, K. (2020). Tourism wetlands and rural sustainable livelihood: The case from Iran. *Journal of Outdoor Recreation and Tourism*, 30, Article 100284. <https://doi.org/10.1016/j.jort.2020.100284>

Zokir SODIKOV,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyas dotsenti, i.f.n.
Dilnoza RAXMATULLAYEVA,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi magistranti

INDONEZIYADA ZAKOT INSTITUTINING KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI ROLI: 2010-2020-YILLAR EKONOMETRIK TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Indoneziyada 2010-2020-yillar davomida zakot tushumlarining kambag'allik darajasiga ta'siri ekonometrik usullar yordamida tahlil qilindi. Tadqiqotda korrelyatsion tahlil, oddiy eng kichik kvadratlar (OLS), geteroskedastiklikka tuzatilgan regressiya hamda ikki bosqichli eng kichik kvadratlar (TSLs) modellari qo'llanildi. Olingan natijalar zakot tushumlari bilan kambag'allik darajasi o'rtasida kuchli manfiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Empirik baholashlarga ko'ra, zakot hajmining ortishi kambag'allik darajasining sezilarli darajada pasayishiga olib keladi. Tadqiqot natijalari zakot institutining ijtimoiy himoya mexanizmi sifatidagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: zakot, kambag'allik, ekonometrik tahlil, OLS modeli, TSLs modeli.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние поступлений закята на уровень бедности в Индонезии за период 2010-2020 гг. с использованием эконометрических методов. В исследовании применены корреляционный анализ, метод наименьших квадратов (OLS), регрессия с учётом гетероскедастичности и модель двухшагового метода наименьших квадратов (TSLs). Полученные результаты показали наличие отрицательной взаимосвязи между объёмом закята и уровнем бедности. Согласно эмпирическим оценкам, увеличение объёма закята приводит к существенному снижению уровня бедности. Результаты исследования подтверждают значимую роль института закята как механизма социальной